



QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

PhD., dots. **Burxanov Alisher**

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0000-0002-2794-0823

alisher892jentra@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligiga investitsiya kiritish zaruriyati borasida tahlillar amalga oshirilgan, shu bilan bir qatorda, mamlakat qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasida sohada yaratilayotgan qo'shilgan qiymat tuzilmasida o'zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqotchi olimlarning qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsiya faoliyatini tashkil etish yuzasidan qarashlari va fikrlari muhokama qilingan. Tizimli tahlil yondashuviga tayangan holda, investitsion faoliyatni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish moliyaviy, investitsion va ishlab chiqarish-tijorat faoliyatlarining o'zaro uyg'unligi va yaxlitligiga asoslanishini bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyati obyektlari va rag'batlantiruvchi omillari tizimlashtirilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish, ya'ni investitsiyalash iqtisodiy obyektlari bilan bog'liq bo'lgan investitsion faoliyat siklining modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, investitsiya, qo'shilgan qiymat, investitsion faoliyat.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

к.э.н., доц. **Бурханов Алишер**

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В статье анализируется потребность в инвестициях в сельское хозяйство, а также изменения в структуре добавленной стоимости, создаваемой в отрасли в результате проводимых в сельском хозяйстве страны реформ. Обсуждаются взгляды и мнения ученых-исследователей по вопросам организационной инвестиционной деятельности сельскохозяйственных предприятий. На основе системного анализа выдвигаются предложения о формировании системы финансового обеспечения инвестиционной деятельности на основе взаимной гармонии и целостности финансовой, инвестиционной и производственно-коммерческой деятельности. В статье систематизированы объекты и факторы стимулирования инвестиционной деятельности сельскохозяйственных предприятий. Также предложена модель цикла инвестиционной деятельности, связанной с производством и использованием сельскохозяйственной продукции, то есть экономические объекты инвестирования.

Ключевые слова: сельское хозяйство, инвестиции, добавленная стоимость, инвестиционная деятельность.

DIRECTIONS FOR DEVELOPING INVESTMENT ACTIVITIES IN AGRICULTURE

PhD, assoc. prof. **Burkhanov Alisher**
Gulistan State University

Abstract. *This article analyzes the need for investment in agriculture, as well as the changes in the structure of added value created in the sector as a result of the reforms being implemented in the country's agriculture. The views and opinions of research scientists on the organization of investment activities of agricultural enterprises are discussed. Based on the approach of systematic analysis, proposals are put forward that the formation of a system of financial support for investment activities is based on the mutual harmony and integrity of financial, investment and production and commercial activities. The article systematizes the objects and incentive factors of investment activities of agricultural enterprises. Also, a model of the investment activity cycle associated with the production and use of agricultural products, that is, the economic objects of investment, is proposed.*

Keywords: *agriculture, investment, added value, investment activity.*

Kirish.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi e'tirof etiladi (Lowder, 2012). Qishloq xo'jaligiga investitsiya kiritish zaruriyati borasida tahlillar amalga oshirilgan bo'lsada, bugungi kunda ushbu sohaga kiritilgan davlat va xususiy investitsiyalarning umumiy miqdori va ularning samaradorligini taqqoslash borasida ilmiy izlanishlar soni etarli emas.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda YalMning tarmoq tuzilmasida qishloq xo'jaligining ulushi bugungi kunda 24,12%ni tashkil qiladi, 2026-yilgacha bo'lgan muddatda mazkur ko'rsatkichning salmog'i 22,0%gacha pasayishi kutiladi. Yaqin istiqbolda qishloq xo'jaligida yalpi qo'shilgan qiymatning o'sishi o'rtacha 4,0% atrofida bo'lishi bashorat qilinmoqda, bu o'z navbatida etarlicha investitsiya mablag'larini talab qiladi (1-rasmga qarang).

Shu bilan bir qatorda, mamlakat qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasida sohada yaratilayotgan qo'shilgan qiymat tuzilmasida ham o'zgarishlar ko'zga tashlanadi.

Xususan keyingi yillarda mamlakatda baliqchilik, parrandachilik kabi yo'nalishlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida bunday yo'nalishlarning qishloq xo'jaligi yalpi qo'shilgan qiymatidagi ulushi oshib bormoqda, birgina baliqchilikda yaratilgan qo'shilgan qiymat tahlil qilinayotgan davrda 1,15 foizdan 3,0 foizgacha o'sgan (2-rasm).

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotchi G. V. Markova qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsiya faoliyatini tashkil etish ikki yo'nalishda amalga oshirilishi borasidagi qarashni ilgari suradi (Маркова Г. В. (2013)). G. V. Markova qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsiya faoliyatini tashkil etish bo'yicha o'z qarashlarini ikki asosiy yo'nalishda shakllantirgan. Ularning har biri qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali ishlashi va ularning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Markova (2013), qishloq xo'jaligi korxonalarining rivojlanishida ichki resurslardan samarali foydalanishni ta'kidlaydi. O'zining ichki resurslari (masalan, korxonaning foydasi, saqlangan mablag'lar, amortizatsiya va boshqa o'zgaruvchan kapital resurslari) orqali investitsiya faoliyatini amalga oshirish. Bu yo'nalish, qishloq xo'jaligi korxonalarining mustahkam moliyaviy holatini yaratish va barqaror ishlashini ta'minlashga yordam beradi.

Markova (2013) shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishda tashqi investitsiyalarni jalb qilishning muhimligini ta'kidlaydi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali texnologik yangilanishlar, yangi ishlab chiqarish tizimlari va marketing strategiyalarini ishlab chiqish. Ichki va tashqi kreditlar yoki fondlar orqali investitsiyalarni jalb qilish, bu esa qishloq xo'jaligi korxonalariga katta moliyaviy resurslarni taqdim etadi. Shuningdek, kompaniyalarning global bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytirish va eksport salohiyatini oshirishni maqsad qiladi.

Fikrimizcha, ichki manbalarni samarali boshqarish qishloq xo'jaligi korxonalarining o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanishga asoslanadi. Bu, albatta, korxonaning moliyaviy mustahkamligini oshiradi, tashqi qarzlarni kamaytiradi va o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda ko'proq barqarorlikka olib keladi. Ichki resurslardan, masalan, korxonaning foydasi, amortizatsiya va boshqa saqlangan mablag'larni ishlatish orqali investitsiya faoliyatini rivojlantirish, qisqa muddatda samarali natijalar berishi mumkin.

Shu bilan birga, tashqi investitsiyalarni jalb qilish yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Tashqi investitsiyalar, ayniqsa, yangi innovatsion texnologiyalar va boshqaruv tizimlarini korxonaga olib kirish uchun muhim resurs bo'lib xizmat qiladi.

Masikning (2021) fikriga ko'ra, ichki va tashqi investitsiyalarni uyg'unlashtirish qishloq xo'jaligi tashkilotlari uchun muhim yo'nalishdir. Ichki manbalar, masalan, o'z kapitali yoki ortiqcha ishlab chiqarish mablag'lari, qisqa muddatli rivojlanish uchun etarli bo'lishi mumkin, ammo tashqi investitsiyalar (xorijiy va ichki kreditlar, grantlar, sovg'alar) uzun muddatli barqarorlik va innovatsion rivojlanish uchun zarurdir. Masik (2021) qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsiya faoliyatida texnologik yangilanishni eng asosiy omillardan biri deb hisoblaydi.

Shu tariqa, investitsiya faoliyatini tashkil etishning mohiyati oddiy "harakat" yoki "bosqich"larning shunchaki oddiy to'plamida emas, balki keng qamrovli iqtisodiy munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi, bundan tashqari, investitsiya jarayonlari muayyan rejalar ko'rinishida asoslanadi, bu o'z navbatida yaxlit tarzda investitsiyalarni samarali amalga oshirishning muhim sharti sanaladi.

Dolgopolova (2015) investitsion resurslarni samarali boshqarishni, ularning manbalarini aniqlash va to'g'ri taqsimlashni ta'kidlaydi. Qishloq xo'jaligi tashkilotlari uchun investitsiya faoliyati faqatgina tashqi moliyaviy resurslardan (xorijiy investitsiyalar, kreditlar, grantlar) foydalanish bilan cheklanmaydi, balki ichki resurslarni (o'z foyda va saqlangan mablag'lar) ham samarali ishlatish zarur. Shuningdek, Dolgopolova, qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun investitsiya resurslari manbalarini kengaytirishni, jumladan, mahalliy va mintaqaviy moliyaviy institutlar, davlatning moliyaviy yordam vositalari (subsidiyalar, imtiyozli kreditlar) va kooperativ tashkilotlar orqali yangi investitsion resurslar jalb etishni o'zida aks ettiradi izohlaydi.


Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligida investitsion faoliyatni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda asosiy e'tibor investitsiyalarni jalb qilish omillari, ularning samaradorligi va tarmoqdagi mavjud muammolarga qaratiladi.

Tadqiqotda tizimli, tahliliy va taqqoslama yondashuvlar qo'llaniladi. Tahlil usullari sifatida statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili hamda SWOT tahlil usullaridan foydalaniladi. Bu orqali investitsion faollikka ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari asosida qishloq xo'jaligiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, ularning samaradorligini oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya faoliyati moliyaviy va ishlab chiqarish - tijorat faoliyati, investitsiya obyektlari, investitsiya siklining bosqichlari va shu kabilarni aniqlashtiruvchi o'ziga xos motivlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Shu tariqa, investitsiya faoliyatini tashkil etishning konseptual qoidalarini shakllantirish borasida tizimli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.



1-rasm. 2022-2026-yillarda qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatning o'sish sur'atlari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.



2-rasm. Qishloq xo'jaligi sohalarida qo'shilgan qiymat yaratilishi, %da

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Shu tariqa, mazkur rag'bat omillari: yaxlit tarzda investitsiya faoliyatini amalga oshirishga rag'batlantiradi; rag'bat omillari investitsiya faoliyatini kuchaytirish yoki aksincha, cheklash imkoniga ega bo'lgani holda, investitsiyalar ko'lamini belgilaydi; investitsiya obyektlarini aniqlash imkonini beradi; investitsiya faoliyatining bosqichlari, uning sikli va davomiyligini aniqlashtiradi.

Agrar soha korxonalarida investitsion faoliyatni tashkil etish borasida to'plangan tajribalar investitsion faoliyatning xilma-xil rag'bat omillarini aslida ikki iqtisodiy va noiiqtisodiy guruhlariga bo'lish mumkinligini ko'rsatadi.


Mabodo qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini rag'batlantiruvchi omillarning o'rnidan kelib chiqadigan bo'lsak, tabiiyki bunda iqtisodiy rag'bat omillari birlamchi ahamiyat kasb etishiga guvoh bo'amiz.

Investitsion foyda bilan bir qatorda, investitsiya faoliyatining yana bir muhim rag'batlantiruvchi omili investitsion foydaning muqobili sifatida sof keltirilgan daromad ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu o'z navbatida investorni qandaydir faraz qilinuvchi buxgalteriya foydasi emas, balki investitsion loyihaga tikilgan mablag'ning qay muddat va qancha miqdorda qaytishi ko'proq qiziqtirishi bilan izohlanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatiga turtki bo'uvchi rag'batlar muayyan investitsiya obyektlarida o'z moddiy aksini topadi. Tadqiqot davomida qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyati obyektlari va rag'batlantiruvchi omillari tizimlashtirildi. Investitsion faoliyat obyektlari va rag'batlantiruvchi omillarning taklif etilayotgan tizimida investitsiyalash obyektlari bir-biriga uzviy bog'liqlikda mavjud bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi korxonalari amaliyotida iqtisodiy rag'bat omillari va obyektlari ustuvorlik kasb etadi. Xususan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida 54-maqсад sifatida "Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish" belgilangani holda, 2030 yilgacha bo'lgan muddatda sohaga jami 15 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilish (Farmon 2023) ko'zda tutilgan. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida qishloq xo'jaligini rivojlantirish doirasida katta miqdordagi investitsiya resurslarini talab etadi.


2023-yilda Respublikada o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmi 352,1 trln. so'mni tashkil qilgani holda, jami investitsiyalarning ulushi YaIMga nisbatan 33,0%ga etgan. Investitsiyalash manbalarini tahlil qilish investitsiya manbalari orasida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar (24,1%), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar (24,0%), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar (23,4%) eng katta ulushga ega bo'lganligini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. 2023-yilda Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarini tahlil qilinyotgan davrda xorijiy investitsiyalar va kreditlarning ulushi eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan, shuningdek, tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushi ham yuqori ulushni tashkil qilgan. (4-rasm).




4-rasm. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalar, %da

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Blank davlatning investitsiya faoliyatiga ta'siri va qo'llab-quvvatlashining muhimligini ta'kidlaydi. Davlatning investitsiyalarni rag'batlantiruvchi siyosati, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va boshqa moliyaviy vositalari orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi kerak. Blank davlatning moliyaviy resurslarini ajratishda strategik yo'nalishlarni belgilashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. O'z navbatida, Soltiev investitsiyalash obyektlariga investitsiyalash maqsadida jalb qilinuvchi barcha kapital qiymatliklarni investitsion resurs sifatida tavsiflaydi (Soltiyev, 2018).

T.K.Rutkauskas investitsiyalarning samarali boshqarilishi haqida gapirganda, bu jarayonda resurslarni to'g'ri taqsimlash va investitsiya risklarini boshqarishni ta'kidlaydi. Unga ko'ra, investitsiya jarayonida **investitsiya risklarini** tahlil qilish va ularga qarshi strategiyalar ishlab chiqish zarur. Risklarni baholash, loyihalarni amalga oshirishda yuksak ehtiyotkorlik va ta'sir ko'rsatadigan omillarni hisobga olish lozim (Rutkauskas, 2019).

Yuqorida qayd etganimizdek, tadqiqot ishida qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyati obyektlari va rag'batlantiruvchi omillari tizimlashtirildi (5-rasm).



5-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonalari investitsion faoliyatining rag'bat omillari va obyektlari tizimi

Manba: Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Bugungi kunda qarz mablag'larining yana bir manbai davlat budjetidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining muayyan bir xarajatlarini qoplab berish amaliyotidan keng foydalanilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-yanvardagi PQ-23-sonli "Paxta xomashyosi etishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra (Qaror 2023), 2023-yildan boshlab, maqsadli agrar faoliyat uchun xorijdan olib kelingan va respublikamizda ishlab chiqarilgan lazerli qurilmaga ega avtomatlashtirilgan er tekislagich agregatlarini sotib olganlarga uning qiymatining 30 foizini; paxtachilikda nasos orqali sug'orishda sarflanadigan elektr energiyasi xarajatlarining 50 foizigacha qismini Davlat budjetidan qoplab berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuning bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-noyabrdagi "Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozlik klasterini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-7-sonli Qarori bilan 2022-yil 1-yanvardan boshlab mahalliy lashtirish darajasi 25 foizdan kam bo'lmagan mahalliy ishlab chiqaruvchilar yoki ularning vakolatli dilerlik tashkilotlari tomonidan xaridorlarga etkazib beriladigan qishloq xo'jaligi texnikalari uchun quyidagi subsidiyalardan bir vaqtda foydalanishga ruxsat berish: qishloq xo'jaligi texnikalarini sotib olish uchun jalb qilingan kredit yoki lizing bo'yicha qarzдорlikni so'ndirishga yo'naltirish; kredit yoki lizing shartlari asosida qishloq xo'jaligi

texnikalari xarid qilinganda foiz xarajatlarini subsidiyalash amaliyoti joriy qilingan (Qaror 2021).

Bank kreditlarining qimmatligi, ya'ni yuqori foiz stavkalari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun jiddiy muammo bo'ladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini, ayniqsa kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilar uchun, yuqori foizlar bilan kredit olish iqtisodiy jihatdan foydasiz yoki qiyin bo'lishi mumkin. Foiz stavkalarining yuqoriligi kreditni qaytarishning qiyinlashishiga, shu bilan birga qarz olishning o'ziga xos risklarini oshiradi.

Banklar, kredit berishda odatda qishloq xo'jaligi korxonalaridan yuqori talablarga ega bo'ladi. Masalan, banklar garov sifatida ishlab chiqarish mablag'lari yoki er maydonlarini talab qilishadi. Kichik yoki o'rta ishlab chiqaruvchilar ko'pincha bunday garovlarni taqdim eta olmaydi, bu esa ularning bank kreditlarini olish imkoniyatini cheklaydi. Garovning yo'qligi yoki bankning talabiga javob bera olmaslik kreditorlar uchun riskni oshiradi va kredit olishni qiyinlashtiradi.

Mazkur masalalarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 578-sonli Qarori (VM Qaror 2019) qishloq xo'jaligi texnikalarini lizing asosida sotib olishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartibini belgilab beradi.

Investitsion faoliyatni moliyalashtirishda budgetdan moliyalashtirish borasida qo'yilayotgan talablarga javob berishlari lozim. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishda budget mablag'laridan foydalanishning quyidagi shakllari farqlanadi: budget krediti, hukumat kafolati, investitsion soliq krediti.

Asosiy vositalarning eskirishi va yangilanishining pastligi ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi. Eski texnologiyalar, mashinalar va uskunalar tez-tez nosozlikka uchraydi, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining sekinlashishiga, mahsulot sifatining pasayishiga va ishlab chiqarishning umumiy samaradorligining kamayishiga sabab bo'ladi. Eski texnikalar ko'pincha kam quvvatli bo'lib, zamonaviy texnologiyalar bilan taqqoslaganda unumdorlikni oshira olmaydi.

Eski va eskirgan uskunalar doimiy ravishda ta'mir talab qiladi, bu esa xarajatlarni oshiradi. Bu esa ko'plab qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy yukini oshiradi, chunki ularning daromadlari ko'pincha past bo'ladi va bu ta'mirlash va yangilanish xarajatlarini qoplashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsiya resurslardan foydalanish: korxonani tashqi moliyaviy bosimdan xoli qiladi, investitsiya jarayonini tezlashtiradi, foyda va risklar ustidan to'liq nazoratni ta'minlaydi, tashqi investorlar va kreditorlar oldida ishonchli imidj yaratadi.

Shuningdek, bu mablag'lar yordamida korxonalar o'z faoliyatini uzoq muddatli strategik yo'nalishda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, o'z moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faolligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Nima uchun qarz mablag'lari investitsiyani moliyalashtirishda muhim? O'z mablag'lari etarli bo'lmagan holatlarda, ko'p hollarda qishloq xo'jaligi korxonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'z mablag'lari etarli bo'lmaganda, qarz mablag'lari bu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.


Bu esa o'z navbatida yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, yangi texnika xarid qilish, suv ta'minoti tizimini yaxshilash yoki mahsulotni qayta ishlash sexini qurish kabi yirik xarajatlar katta sarmoya talab etadi. Bu kabi loyihalarni faqat o'z mablag'lariga tayangan holda amalga oshirish mushkul bo'ladi.

Moliyaviy resurslar aylanishini tezlashtirishi bilan birga, qarzlar orqali tezda zarur mablag'ga ega bo'lish mumkin, bu esa loyihalarni cho'zmasdan tez amalga oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga daromad tezroq olinadi va qarz ham qoplab ketiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 12-fevralda agrar sohadagi ustuvor vazifalar va rejalarga bag'ishlangan yig'ilishda aholiga bo'lib berilgan er maydonlari

hamda tomorqa erlariga sanoat va kooperatsiyani keng olib kirish maqsadida 1 trillion so'm kredit uchun resurs ajratilishi, shuningdek, jami 10 mingta texnika fermer va dehqonlarga 10 yil muddatga 3 yil imtiyozli davr bilan lizingga berilishi, chetdan olib kelinib, lizingga beriladigan motokultivator va minitraktorlarga bojxona imtiyozi 3 yilga uzaytirilishi belgilab berildi. Shu bilan bir qatorda, 2024-yilda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini moliyalashtirish ishlarini davom ettirgan holda, mablag'lar ajratilishi ko'zda tutilgan (6-rasm).

Yuqorida keltirilgan manbalarining iqtisodiy mohiyatni o'rganish nafaqat investitsion faoliyat doirasida, balki moliyaviy hamda ishlab chiqarish-tijorat faoliyatlari jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish orqali iqtisodiy mohiyatning mazmun-mohiyatini to'liq anglash mumkin bo'ladi.



6-rasm. Agrar sohaga davlat budjetidan ajratilgan subsidiyalar, mlrd. so'm


Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari, www.agro.uz

Masalan, investitsion faoliyatda kapital mablag'larning yo'naltirilishi, ularning samaradorligi va rentabelligi iqtisodiy mohiyatni aks ettiradi. Moliyaviy faoliyatda esa pul oqimlari, qarz va aktivlar boshqaruvi orqali iqtisodiy qiymatlar yaratiladi. Ishlab chiqarish-tijorat faoliyatida esa resurslardan samarali foydalanish, mahsulot yaratish va uni bozorga chiqarish orqali iqtisodiy natijalarga erishiladi. Demak, iqtisodiy mohiyatni o'rganish jarayoni har bir bosqichda mavjud bo'lgan umumiy iqtisodiy qonuniyatlar va tamoyillarni aniqlash, ularni chuqur va kompleks tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu asosda, tizimli tahlil yondashuviga tayangan holda, investitsion faoliyatni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish – bu moliyaviy, investitsion va ishlab chiqarish-tijorat faoliyatlarining o'zaro uyg'unligi va yaxlitligiga asoslanishini ta'kidlash mumkin (7-rasm).

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini "yaratish" jarayoni faqatgina investitsion faoliyatning o'ziga xos jihati emas, balki u moliyaviy va ishlab chiqarish-tijorat faoliyatlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Bu esa investitsion faoliyatning o'zi murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Investitsion-moliyaviy faoliyat doirasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, kapital mablag'larini jalb etish, ulardan samarali foydalanish, risklarni boshqarish va moliyaviy oqimlarni tahlil qilish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Bu yo'nalish investitsiya jarayonining moliyaviy asosini tashkil etadi.

Investitsion-ishlab chiqarish faoliyati esa, asosan, investitsiya mablag'larining ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirilishi, asosiy vositalarni yangilash, texnologik modernizatsiya, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish kabi amaliy harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu yo'nalish investitsiyaning real iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.



7 - rasm. Investitsion faoliyatni tashkil etish jarayonida moliyaviy ta'minot tizimini shakllantirishda qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri

Manba: Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Tegishli obyektlardan foydalanish, ya'ni ularni ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlar uchun iste'mol qilish jarayoni bevosita investitsiya faoliyati hamda ishlab chiqarish (ijtimoiy) faoliyatining ajralmas qismidir. Bu jarayonlarda ishlab chiqarish vositalari – texnika, asbob-uskunalar, bino-inshootlar va boshqa asosiy vositalar – muayyan muddat davomida xizmat qiladi va asta-sekin qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibiga o'tkazadi. Bu holat amortizatsiya ajratmalari orqali ifodalanadi.


Amortizatsiya ajratmalari – bu asosiy kapitalning foydalanish muddati davomida ularning qiymatini asta-sekin qoplab borish mexanizmidir. Ushbu ajratmalar har yili mahsulot tannarxiga qo'shiladi va ishlab chiqarishdan tushgan daromad tarkibida jamlanadi. Natijada, bu mablag'lar qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan qayta investitsiya qilinadigan moliyaviy manbaga aylanadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish faoliyati natijasida hosil bo'lgan mahsulot sotilishi orqali foyda olinadi. Bu foyda esa korxonaning ixtiyorida qoladigan va keyingi investitsion faoliyatga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan ichki moliyaviy resurs hisoblanadi. Shunday qilib, asosiy vositalarni ishlab chiqarishda va ijtimoiy ehtiyojlarda ishlatish natijasida: Amortizatsiya

ajratmalari orqali asosiy kapitalni tiklash imkoniyati yaratiladi; Foyda olish orqali investitsion faoliyatni kengaytirish va yangilash uchun qo'shimcha manbalar shakllanadi.

Demak, bu jarayon ikki yo'nalishda bir vaqtning o'zida yuz beradi: bir tomondan, asosiy vositalarning qiymati asta-sekin ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga o'tkazilib qayta moliyaviy manba sifatida yig'iladi, ikkinchi tomondan esa, foyda ko'rinishida investitsiya salohiyati oshadi. Bu holat investitsion faoliyatning uzluksizligini va ichki resurslar evaziga o'zini o'zi moliyalashtirish imkoniyatini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va shuningdek, konseptual yondashuvni shakllantirishning asosi sifatida qabul qilingan tizimli-takror ishlab chiqarish jarayonidan kelib chiqqan holda, investitsion siklning ko'rinishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi, deb xulosa qilishimiz mumkin.

8-rasmda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish, ya'ni investitsiyalash iqtisodiy obyektlari bilan bog'liq bo'lgan investitsion faoliyat siklining modeli ko'rsatilgan.



8 - rasm. Investitsion mahsulotdan ishlab chiqarish maqsadida (iqtisodiy foydalanish) foydalanish sharoitida korxona investitsion faoliyati sikli modeli

Manba: Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Investitsion siklning birinchi bosqichida (1) moliya-kredit resurslarining turli manbalaridan mablag'lar jalb qilinishi va investitsiyalash maqsadida jamg'arilishi amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy tavsifdagi obyektlarni moliyalashtirishning barcha mumkin bo'lgan manbalaridan foydalanishlari mumkin.


So'ngra moliyaviy resurslar turli xil investitsiya obyektlari-asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va joriy aktivlarning ko'payishiga (2) investitsiya resurslari shaklida uzoq muddatli asosda investitsiya qilinadi.

Keyinchalik investitsiya obyektlaridan ishlab chiqarish - tijorat faoliyati jarayonida foydalaniladi, bir tomondan yangi moddiy qimmatliklarni yaratish orqali investitsiyalangan qiymat miqdori o'sadi, boshqa bir tomondan, asosiy aktivlardan foydalanish jarayonida ular eskiradi va ularni tiklash manbalari- amortizatsiya (5-8) va investitsiya obyektlaridan foydalanishdan foyda (7) shakllanadi.

So'ngra moliyaviy resurslar turli xil investitsiya obyektlari-asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va joriy aktivlarning ko'payishiga (2) investitsiya resurslari shaklida uzoq muddatli asosda investitsiya qilinadi.

Keyinchalik investitsiya obyektlaridan ishlab chiqarish - tijorat faoliyati jarayonida foydalaniladi, bir tomondan yangi moddiy qimmatliklarni yaratish orqali investitsiyalangan qiymat miqdori o'sadi, boshqa bir tomondan, asosiy aktivlardan foydalanish jarayonida ular eskiradi va ularni tiklash manbalari- amortizatsiya (5-8) va investitsiya obyektlaridan foydalanishdan foyda (7) shakllanadi.

Jamg'arilgan amortizatsiya va sof foyda yana qaytadan asosiy va nomoddiy aktivlarni oddiy takror ishlab chiqarish (9) yoki asosiy va nomoddiy aktivlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shartlari asosida joriy aktivlarni ko'paytirish (10-11) borasida investitsiyalarga yo'naltiriladi. Sof foydaning qolgan qismi investitsiya faoliyati jarayonidan chiqib ketadi va investitsion faoliyat subyektlari – mulkdorlar, tijorat banklari, davlat va mahalliy hokimiyat organlari va boshqalarning daromadlarini to'ab berish maqsadida ular o'rtasida taqsimlashga yo'naltiriladi (12). Mazkur jarayonning amalga oshishi asnosida investitsion faoliyat sikli o'z nihoyasiga etadi. Shu tariqa, taqdim etilgan doimiy takrorlanib turuvchi investitsion sikllardan yaxlit tarzda qishloq xo'jaligi korxonasining investitsion faoliyati shakllanadi.



9 - rasm. Innovatsion mahsulotlardan ijtimoiy sohada (noiqtisodiy maqsadlar)da foydalanish borasida investitsion faoliyat sikli modeli


Manba: Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Biroq, investitsiyalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tavsifga ega bo'lgani holda, ijtimoiy takror ishlab chiqarishni ta'min etuvchi yana bir muhim jarayon sifatida ishchi kuchini takror

ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Investitsion faoliyat mahsulotlaridan ijtimoiy maqsadlarda foydalanish borasida investitsion faoliyat sikli modeli 9-rasmda keltirib o'tilgan.

Investitsion siklning birinchi bosqichida (1), avvalgidagidek, turli manbalardan moliya-kredit resurslarining jalb qilinishi va ularni investitsiyalash maqsadida jamg'arilishi amalga oshadi. So'ngra moliyaviy resurslar uzoq muddatli asosda investitsiya resurslari shaklida, turli xil investitsiya obyektlariga investitsiya qilinadi, ular asosan sanatoriylar, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, madaniyat markazlari va shu kabilar ko'rinishida ijtimoiy ahamiyatdagi asosiy aktivlarni ko'paytirish uchun sarflanadi (2).

Keyinchalik jarayonda investitsiya obyektlaridan foydalaniladi, ammo shu bilan bir qatorda, ishlab chiqarishda foydalanishda bo'lgani kabi yangi moddiy qiymatliklarini yaratish orqali investitsiya qilingan qiymatning o'sishi kuzatilmaydi.



10-rasm. Tizim-takror ishlab chiqarish konseptual yondashuviga asoslangan qishloq xo'jaligi korxonasining investitsion faoliyatini tashkil etish sxemasi

Manba: Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Shu bilan birga, asosiy aktivlar foydalanish jarayonida eskiradi va ularni tiklash manbai – amortizatsiya shakllanadi (3-6). Shuni ta'kidlash kerakki, bu o'rinda asosiy vositalarning ijtimoiy maqsadlarda ishlatilishi sababli, investitsion faoliyatning ikkinchi muhim manbai sanaluvchi foyda shakllanmaydi. Jamg'arilgan amortizatsiya yana asosiy vositalarni oddiy takror ishlab chiqarish shartlari asosida investitsiyalarga yo'naltiriladi (7-8).

Mazkur tadqiqot ishi doirasida birinchi navbatda, biz o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish - tijorat faoliyatida foydalanishga yo'naltirilgan investitsion faoliyat sikli haqida tasavvurga ega bo'lishimiz lozim.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini sarhisob qilish asnosida, tizimli-takror ishlab chiqarish yondashuvi asosida qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini tashkil etish modeli ishlab chiqildi (10-rasmga qarang).

Qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini tashkil etishning taqdim etilgan modeli, birinchi navbatda, investitsiya jarayoni bir vaqtning o'zida iqtisodiy faoliyatning to'rtta yo'nalishi: moliyaviy, investitsion, ishlab chiqarish-tijorat, ishlab chiqarish – tijorat – ijtimoiy – madaniy sohalarida amalga oshirilishidan dalolat beradi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan yondashuv va model doirasida qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini tashkil etish qat'iy belgilangan ketma-ketlikda amalga oshmasligini ta'kidlash lozim, chunonchi barcha jarayonlar investitsiya sikllarining doimiy ravishda takror ishlab chiqarilishining oddiy yoki kengaytirilgan ko'rinishlarida davom etadi.

Investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini jang'arish moliyaviy, ishlab chiqarish - tijorat faoliyati va ijtimoiy-madaniy sohalarida amalga oshadi. Shundan so'ng, ularning to'g'ridan-to'g'ri investitsion faoliyat sohasiga oqib o'tishi sodir bo'ladi, bunda ularg iqtisodiy va noiqtisodiy obyektlarga joylashtiriladi. So'ngra, bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish -tijorat faoliyati va ijtimoiy - madaniy sohada investitsiya obyektlarini iste'mol qilish amalga oshadi, buning natijasi o'laroq, yangi investitsion sikl manbalari shakllanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini tashkil etishning taqdim etilgan modeli, birinchi navbatda, investitsiya jarayoni bir vaqtning o'zida iqtisodiy faoliyatning to'rtta yo'nalishi: moliyaviy, investitsion, ishlab chiqarish-tijorat, ishlab chiqarish – tijorat – ijtimoiy – madaniy sohalarida amalga oshirilishidan dalolat beradi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan yondashuv va model doirasida qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion faoliyatini tashkil etish qat'iy belgilangan ketma-ketlikda amalga oshmasligini ta'kidlash lozim, chunonchi barcha jarayonlar investitsiya sikllarining doimiy ravishda takror ishlab chiqarilishining oddiy yoki kengaytirilgan ko'rinishlarida davom etadi.

Investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini jang'arish moliyaviy, ishlab chiqarish - tijorat faoliyati va ijtimoiy – madaniy sohalarida amalga oshadi. Shundan so'ng, ularning to'g'ridan-to'g'ri investitsion faoliyat sohasiga oqib o'tishi sodir bo'ladi, bunda ularg iqtisodiy va noiqtisodiy obyektlarga joylashtiriladi. So'ngra, bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish -tijorat faoliyati va ijtimoiy - madaniy sohada investitsiya obyektlarini iste'mol qilish amalga oshadi, buning natijasi o'laroq, yangi investitsion sikl manbalari shakllanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari amaliyotida investitsiya faoliyatini takror ishlab chiqarish jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra, yopiq sikl hisoblanadi, ya'ni investitsion siklning dastlabki va oxirgi bosqirlari o'zaro bog'liq bo'lganligi bois, investitsiyalarning doimiy aylanishi kuzatiladi. Shunga ko'ra, investitsiya faoliyatini tashkil etishda investitsion sikllar namoyon bo'lish ining barcha shakllari, turlari va bosqichlari hisobga olinishi lozim. Investitsion faoliyatni tashkil etishni ko'rib chiqishda tizimli-takror ishlab chiqarishga asoslangan yondashuv joriy iqtisodiy tizim va tadqiqot maqsadlari borasida obyektiv va to'g'ri ma'lumotlarni olishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida qishloq xo'jaligi sohasiga investitsiya mablag'larini yo'naltiruvchi investorlarni davlat yoki xususiy, xorijiy va mahalliy investorlar toifasiga ajratish mumkin. Daromadi o'rtachadan past mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining sohani investitsiyalash borasidagi imkoniyatlari bir muncha cheklangan, shu bois bunday mamlakatlarda davlat qishloq xo'jaligini investitsiyalashning asosiy tashabbuskori va manbai hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/4892953>

Farmon (2023). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni, <https://lex.uz/docs/6600413>.

Lowder S. K., Carisma B., Skoet J. (2012). Who invests in agriculture and how much? An empirical review of the relative size of various investments in agriculture in low-and middle-income countries.

Qaror (2021). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.11.2021-yildagi "Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozlik klasterini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-7-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/5731023>.

Qaror (2023). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.01.2023-y. N PQ-23 sonli "Paxta xomashyosi etishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, <https://kadrovik.uz/en/doc?id=712733 &prodid=1vse zakonodatelstvo uzbekistana>.

VM Qaror (2019). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.07.2019-yildagi 578-sonli "qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, <https://lex.uz/docs/4416988>.

Бурханов А., Hadjimuradovich B. A., Nurilla O'g'i O. J., Farkhod O'g'li A. D. (2022) Methodology of regulating and developing production and economic relations in agriculture //World Economics and Finance Bulletin. – T. 15. – C. 139-147. <https://www.scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/1527>.

Бурханов А., (2023) Burxanov A. Qishloq xo'jaligida innovatsiyon iqtisodiyotga o'tishning zamonaviy muammolari //Iqtisodiyot va ta'lim. – T. 24. – №. 4. – C. 37-42. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1185>.

Бурханов А., (2023) Khadzhimuradovich B. A. Formation of new economic relations is the key to stable development of agriculture //" Conference on Universal Science Research 2023". – T. 1. – №. 4. – C. 9-15. file:///C:/Users/asd/Downloads/Burkhanov+Alisher+9-15+CUSR%20(1).pdf.

Долгополова А. Ф., Демченко И. А., Гулай Т. А. (2015). Инвестиционная активность регионального АПК //Экономика сельского хозяйства России. – №. 4. – C. 31-37.

Маркова Г. В. (2013). Совершенствование условий воспроизводства в сельском хозяйстве //Экономист. – №. 9. – C. 51-57.

Масик А. В. (2021). Особенности воспроизводства инвестиционной деятельности в отрасли овощеводства: дис. – Воронежский государственный университет.

Руткаускас Т. К. и др. (2019). Инвестиции и инвестиционная деятельность организаций: учебное пособие.

Солтыев Ш. А. (2018). Инвестиционные ресурсы как предпосылка инновационного развития сельского хозяйства //прорывные экономические реформы в условиях риска и неопределенности. – C. 133-136.